

**“TASDIQLANGAN”  
“O‘zkimyosanoat” AJ  
Kuzatuv kengashi majlisining  
2022-yil 17-iyundagi  
15-son bayonnomasi  
7-ilovasiga muvofiq**

**“O‘ZKIMYOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATI  
KUZATUV KENGASHI HUZURIDAGI AUDIT BO‘YICHA  
QO‘MITASI TO‘G‘RISIDA” NIZOMI  
(*YANGI TAHRIR*)**

## I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida” 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoniga, Vazirlar Mahkamasining “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 29-martdagi 166-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2021 – 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi”ga, “O‘z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) ustaviga, Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Jamiyat Kuzatuv kengashi huzuridagi Audit qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – Audit qo‘mitasi) huquqiy maqomini, tarkibini, vakolatlarini va uning ishlash tartibini belgilaydi.

1.2. Audit qo‘mitasi eng muhim masalalarni ko‘rib chiqish va Jamiyatning Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori asosida tashkil etiladi.

1.3. Audit qo‘mitasi o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilik, Jamiyat ustavi va mazkur Nizomga asosan amalga oshiradi.

## II. Audit qo‘mitasining tarkibi

2.1. Audit qo‘mitasi faqat Jamiyat Kuzatuv kengashining a‘zolaridan 3 (uch) kishidan iborat tarkibda tashkil etiladi. Audit qo‘mitasi tarkibiga kamida bir nafar Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zosi kiritilishi shart.

2.2. Audit qo‘mitasining a‘zolari Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining tavsiyasi asosida Kuzatuv kengashi a‘zolaridan ularning vakolat muddati davriga ko‘pchilik ovoz bilan saylanadi. Audit qo‘mitasining raisi Audit qo‘mitasi a‘zolari orasidan Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Audit qo‘mitasining raisi Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi bo‘lmasligi lozim.

2.3. Audit qo‘mitasining tarkibiga saylangan Kuzatuv kengashi a‘zolari cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

2.4. Audit qo‘mitasiga moliyaviy tahlil va buxgalteriya hisobi sohasida bilimlarga ega bo‘lgan Jamiyat Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zosi rahbarlik qiladi.

2.5. Audit qo‘mitasining a‘zolari oliy ma‘lumotga, audit xizmati maqsadlari va vazifalariga mos keluvchi malaka va tajribaga ega bo‘lishi lozim. Audit qo‘mitasining kamida bitta a‘zosi audit, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot bo‘yicha bir necha yillik tajribaga ega bo‘lishi kerak.

2.6. Audit qo‘mitasining a‘zosi bir vaqtning o‘zida Jamiyat auditorlik tashkilotining xodimi bo‘lmasligi kerak. Shuningdek, Audit qo‘mitasi a‘zosining yaqin qarindoshlari Jamiyat auditorlik tashkilotining xodimi bo‘lmasligi kerak.

2.7. Audit qo‘mitasi a‘zolari o‘rtasidagi vazifalar taqsimlanishi Audit qo‘mitasining raisi tomonidan amalga oshiriladi.

2.8. Jamiyatning ichki audit xizmati o‘z faoliyatida Audit qo‘mitasiga hisobdordir.

### **III. Audit qo‘mitasining asosiy vazifalari**

3.1. Audit qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– Jamiyatda moliyaviy hisobotni tuzishning to‘g‘riligi ustidan nazorat o‘rnatish;

– mustaqil auditorlik tashkilotining tanlanishi, auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishi jarayonlarini kuzatish;

– ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari natijalarini olish hamda o‘rganish;

– nazoratga oid, moliyaviy va boshqa hisobotlarning taqdim etilishini, to‘liqligini, ishonchligini nazorat qilish;

– o‘z vakolati doirasidagi masalalar yuzasidan Kuzatuv kengash majlislariga ma‘lumotlar tayyorlash va unga hisobotlar taqdim etish;

– Jamiyatda ichki audit xizmatini tashkil etish, uning rahbari va xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish masalasi yuzasidan Kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

– ichki audit xizmatining yillik budjetini tasdiqlash, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan Kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

– ichki audit xizmatining choraklik hisobotlarini o‘rganib chiqish va Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

– davriy ravishda (yilda kamida bir marta) Jamiyat ichki audit xizmatining har bir xodimini uning axborotni tanlash, tekshiruv o‘tkazish va xulosalarni tayyorlash salohiyatidan kelib chiqib kasbiy mahorat darajasini baholab borish;

– Jamiyatning ichki nazorat tizimi va ichki auditi faoliyati samaradorligi va monandligini ta‘minlash uchun ularni baholash, ichki audit tekshiruvlari rejasi va ularning davriyligini ko‘rib chiqish, ichki audit xizmati rahbari o‘z vazifa va majburiyatlarini qay darajada amalga oshirayotganligini baholashda ishtirok etish va o‘z fikrlarini bildirish;

– auditorlik tashkilotining takliflarini baholashda Kuzatuv kengashiga amaliy yordam berish, tashqi auditorni tanlash va belgilashda Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash;

– auditorlik tashkilotining xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzilishi (bekor qilinishi) to‘g‘risida Kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

– auditorlik tashkilotining hisoboti va xulosalarini ko‘rib chiqish va ularni Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

– auditorlik tashkilotining faoliyati qoniqarsiz deb baholangan taqdirda, uni o‘zgartirish yuzasidan Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

– Jamiyat faoliyatining shaffofligi va ma‘lumotlarning oshkor qilinishi yetarli darajada va aniq ekanligini ko‘rib chiqish;

– o‘z yillik faoliyati to‘g‘risida Kuzatuv kengashiga hisobot tayyorlash;

– auditorlik tashkilotini jalb qilish uchun o‘tkaziladigan tanlov (tender) shartlari va qo‘yiladigan talablarni belgilash;

– Kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

3.1. Audit qo‘mitasi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini nazorat qilish va tavakkalchilikning samaradorligini ta‘minlash uchun:

– ichki auditning yillik ish rejasini tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashiga kiritadi;

– auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqadi;

– Kuzatuv kengashi oldida audit masalalari bo‘yicha hisobot beradi.

#### **IV. Audit qo‘mitasi majlislarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi**

4.1. Audit qo‘mitasining majlisi Audit qo‘mitasining raisi tomonidan uning o‘z tashabbusiga ko‘ra, Audit qo‘mitasining a‘zolarining talabiga ko‘ra, shuningdek, Jamiyat ichki audit xizmati rahbarining yozma talabiga ko‘ra chaqiriladi.

4.2. Audit qo‘mitasi har chorak yakuniga ko‘ra, zarur bo‘lganda har oyda, qo‘mita a‘zolarining shaxsan ishtirokida yoki boshqa aloqa tarmoqlaridan foydalanish yo‘li bilan o‘z majlislarini o‘tkazib turishi lozim. Audit qo‘mitasi Jamiyatning ijroiya organi va boshqa shaxslarni qo‘mita majlislariga qatnashish uchun taklif qilishi, shuningdek, zarur bo‘lganda ulardan axborot talab qilishi mumkin.

4.3. Audit qo‘mitasi a‘zolari muayyan masalaning kechiktirilmay hal etilishini talab qiladigan qoida buzilishlar aniqlangan taqdirda qo‘mitaning shoshilinch majlisini chaqirilishini talab qilishlari mumkin.

4.4. Audit qo‘mitasi o‘z majlislarini Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislaridan oldin o‘tkazadi.

4.5. Audit qo‘mitasining raisi qo‘mita majlisidagi barcha ishtirokchilarga uni lozim darajada o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va unda olib chiqilgan masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Audit qo‘mitasining a‘zolari qo‘mita majlislarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularda ishtirok etish uchun yetarli darajada vaqt ajratishlari lozim.

4.6. Audit qo‘mitasi majlisida uning a‘zolarining eng kamida 2/3 qismi ishtirok etsa, majlis vakolatli hisoblanadi, bunda qo‘mita raisi ishtirok etishi shart.

4.7. Audit qo‘mitasining majlisida qarorlar majlisda hozir bo‘lganlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

4.8. Audit qo‘mitasining majlisida masalalar hal etilayotganda Audit qo‘mitasining har bir a‘zosi bitta ovozga ega bo‘ladi. Ovozlar teng kelgan taqdirda, qo‘mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Audit qo‘mitasining qaroriga rozilik bildirmagan qo‘mita a‘zosi o‘zining majburiy tartibda majlis bayonnomasiga ilova qilinadigan alohida fikrini qayd etib qo‘yish va uni Kuzatuv kengashi e‘tiboriga havola qilish huquqiga ega.

4.9. Audit qo‘mitasining qarori Audit qo‘mitasi majlisining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu bayonnoma qo‘mita kotibi tomonidan yuritiladi va ovoz berishda ishtirok etgan qo‘mita a‘zolari tomonidan imzolanadi.

4.10. Audit qo‘mitasi majlislariga kotiblik qilish vazifasini Jamiyat ichki audit xizmatining rahbari bajaradi.

4.11. Audit qo‘mitasining raisi:

- Audit qo‘mitasining ishini tashkil etadi;
- Audit qo‘mitasi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;
- Audit qo‘mitasi majlislarida bayonnoma yuritilishini tashkil etadi;
- Jamiyat ichki me‘yoriy hujjatlari va mazkur Nizomda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

Audit qo‘mitasining kotibi:

- Audit qo‘mitasi majlislari bayonnomalarini yuritadi va rasmiylashtiradi;
- Audit qo‘mitasi tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun kun tartibidagi masalalar bo‘yicha materiallarni tayyorlaydi va taqdim qiladi;
- Audit qo‘mitasining qarorlarini, xulosalarini va bayonnomalarini oluvchilargacha yetkazadi.

4.12. Audit qo‘mitasi vakolati doirasida qabul qilingan barcha qarorlar qabul qilingan kundan boshlab, Jamiyat ijroiya organi, ichki audit xizmati va boshqa mansabdor shaxslari uchun ijro etish majburiydir. Ushbu qarorlarda ko‘rsatib o‘tilgan mansabdor shaxslar qarorning o‘z vaqtida hamda qaror ijrosiga mos ravishda bajarilishiga shaxsan javobgardirlar. Audit qo‘mitasi qarorlari ijrosini nazorat qilish Audit qo‘mitasi raisi tomonidan amalga oshiriladi.

4.13. Jamiyat ichki audit xizmati rahbari, uning xodimlari Audit qo‘mitasining majlislarida ovoz berish huquqsiz ishtirok etishlari mumkin.

## **V. Audit qo‘mitasi a‘zolarining huquq va majburiyatlari**

5.1. Audit qo‘mitasi a‘zosi quyidagi huquqlarga ega:

– Jamiyat ijro organi a‘zolarining va Jamiyatning boshqa mansabdor shaxslaridan o‘z faoliyati uchun kerakli barcha hujjatlarni va materiallarni taqdim etishni talab qilish;

– auditorlik tashkiloti va ichki audit xizmatidan hujjatlarni va materiallarni so‘rab olish va ulardan foydalanish;

– agar Jamiyatga jiddiy moddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan yoki yetkazilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan qoida buzilishlar aniqlansa, ijroiya organi majlisi chaqirilishini talab qilish;

– Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari xodimlari, shu jumladan, rahbarlaridan ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha izohlar talab qilish;

– aybdor xodimlarni intizomiy, mulkiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortish masalalarini rahbariyatiga ko‘rib chiqish uchun taqdim qilish;

– Jamiyatning dastlabki buxgalteriya, moliya va boshqa hujjatlaridan foydalanish;

– Audit qo‘mitasi vakolatlari doirasidagi qaror va topshiriqlarni bajarish, qo‘mita majlislarida ishtirok etish maqsadida zarur bo‘lgan holatlarda qo‘mita raisi qarori bilan Jamiyatning rahbar shaxslarini, Jamiyat Kuzatuv kengashining boshqa a‘zolarini davriy yoki muntazam ravishda taklif etish;

– Audit qo‘mitasi fikriga ko‘ra, masalani chuqurroq o‘rganilishiga zarur bo‘lsa, qo‘mita vakolatlariga tegishli bo‘lgan masala bo‘yicha o‘z tashabbusiga ko‘ra, Jamiyat Kuzatuv kengashining boshqa qo‘mitalarining fikrini talab qilib olish;

– Audit qo‘mitast majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so‘zga chiqish, kun tartibidagi masalalar, qabul qilinayotgan qarorlar bo‘yicha o‘zining alohida fikrini qo‘mita majlisi bayonnomasiga kiritishni talab qilish;

– Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlash uchun mazkur Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar berish;

– taqdim etilgan hujjatlar asosida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqish va Jamiyat Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritish;

– Audit qo‘mitasi majlisi kun tartibiga kiritish uchun masalalar taklif qilish.

## 5.2. Audit qo‘mitasi a‘zolarining majburiyatlari:

– hisob siyosatini tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashiga kiritish hamda uning ijrosini nazorat qilish;

– ichki audit xizmati xodimlarini tayinlash uchun Kuzatuv kengashi tasdig‘iga nomzodlarni kiritish hamda ularni lavozimdan ozod etish to‘g‘risida taklif kiritish;

– O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Nizom, korxonalar Ustavi va ichki hujjatlari asosida o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish hamda o‘z faoliyatini sidqidildan olib borish;

– Jamiyat tomonidan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda amalga oshirilgan xaridlarni nazorat qilish;

– ichki audit xizmati ishini, shu jumladan, uning hisobotlarini tahlil qilish va samaradorlikni baholash orqali nazorat qilish;

– moliyaviy hisobot, shu jumladan, konsolidatsiyalashgan hisobotning buxgalteriya standartlari va hisob siyosatiga muvofiqligini tahlil va nazorat qilish;

– Jamiyat aksiyadorlarining huquqlari, manfaatlari va qiziqishlarini himoya qilish prinsiplari asosida faoliyat yurgizish;

– Jamiyatning tijorat va xizmat sirlarini oshkor etmaslik hamda maxfiylik talablarini bajarish;

– tashqi audit o‘tkazilishini ta‘minlash.

Audit qo‘mitaning a‘zolari qo‘mita majlisida shaxsan qatnashishlari shart. Agar majlisda qatnashish imkoniyati mavjud bo‘lmasa, qo‘mita a‘zosi sabablarini ko‘rsatgan holda Audit qo‘mitasini bu haqda xabardor qiladi.

Audit qo‘mitasi, Jamiyat auditorlik tashkilotining so‘roviga ko‘ra, auditorlik tekshiruv jarayonida yuzaga kelgan masalalar yuzasidan og‘zaki va yozma tushuntirishlar berishga hamda auditorlik tekshiruv uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma‘lumotlarni taqdim etishga majbur.

Audit qo‘mitasi buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlari to‘g‘risida yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniq tasdiqlovchi faktlar haqida Jamiyat auditorlik tashkiloti tomonidan yozma shaklda xabardor qilinishi shart.

## **VI. Audit qo‘mitasi a‘zolarining javobgarligi**

6.1. Audit qo‘mitasining a‘zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko‘zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi lozim.

6.2. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Audit qo‘mitasining a‘zolari javobgar bo‘lmaydi.

## **VII. Yakunlovchi qoidalar**

7.1. Mazkur Nizom Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan e‘tiboran kuchga kiradi.

7.2. Ushbu Nizom, shuningdek, unga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi takliflar Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi va Audit qo‘mitasi a‘zolari tomonidan kiritilishi mumkin.

7.3. Ushbu Nizom tasdiqlangan sanadan boshlab, Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan 2021-yil 17-fevraldagi 10-son bayonnoma qarori bilan tasdiqlangan “O‘zkiyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining Kuzatuv kengashining Audit qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomi o‘z kuchini yo‘qotadi.